



BIZNESDA RISK DARAJASINI ORTISH SABABLARI

Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna

Namangan davlat texnika universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, PhD

ergasevafotima77@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada biznesning risk bilan bog'likligi, risk atamasiga bo'lgan yondashuvlar yoritib o'tilgan. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatida risk darajasini ortish sabablari bayon etilgan. Risk darajasini kamaytirish borasida tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: risk, yo'qotish ehtimoli (tahdidi), “tavakkalchilik holati”, noaniqlik mavjudligi, zarar ko'rish, qarama-qarshi tendentsiyalarning mavjudligi, makroiqtisodiy muhitning beqarorligi, ayirboshlash kursining salbiy o'zgarishi, xaridorning to'lov qobiliyati, mahsulot bahosining kutilmagan o'zgarishi, hamkor majburiyatlari, bajara olmaslik

Kirish

Hozirda muayyan hodisalarning rivojlanish ehtimolini o'zgaruvchanligi va tashqi muhitning beqarorligi sharoitida har qanday tadbirkorlik korxonalari risklarga to'qnashadi. Ularni to'g'ri baholash va boshqarishga muhtojlik sezadi. Ma'lumotlarning yetarli emasligi yoki noto'g'ri hisob-kitoblar biznesni tezda bankrotlik yoqasiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, ko'plab ilmiy tadqiqotlarga asoslangan to'g'ri tahlil va xulosalar nafaqat tashqi muhitdan salbiy tendentsiyalarni kamaytirishi, balki biznesni yangi bosqichga ko'tarishi mumkin.

Noaniqlik sharoitida risklarni o'rganish va qaror qabul qilish iqtisodiy jarayonning muhim elementlari bo'lib, ularning samaradorligi butunlay riskni baholash uchun ishlatiladigan vositalar va usullarga bog'liq. Risklarni tahlil etish va baholash vositalaridan to'g'ri foydalanish korxonaga tashqi muhitdagi tebranishlarga qarshi turish va ichki barqarorlikni saqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ma'lum miqdordagi tavakkalchilik bilan moliyaviy mablag'larni to'g'ri yo'naltirish korxonani rivojlantirish uchun qo'shimcha mablag'larni jalb qilish imkonini beradi. Ushbu masalalarning mavjudligi mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

Risk muammosi biznes faoliyatidagi asosiy tushunchalardan biri bo'lib, alohida ahamiyatga ega. Risk kapitaldan samarali foydalanish uchun rag'batlantiruvchi rolni o'ynaydi.

Zamonaviy biznesni risksiz tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki biznesning muvaffaqiyati nafaqat tanlangan biznes strategiyasining to'g'riligi va asosliligiga, balki tanqidiy vaziyatlar ehtimolini hisobga olishga ham bog'liqdir. Bozor sharoitida omon qolish uchun, texnik yangiliklarni joriy etish va jasur, qat'iyatli harakatlar to'g'risida qaror qabul qilish kerak va



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



bu riskni oshiradi. Shu sababli, tadbirkorning asosiy vazifalari – risk darajasini baholash va uni boshqarish qobiliyati hamda riskdan qochmaslikdir[1].

Riskning ta'rif, mohiyati va ahamiyati to'g'risida turli xil qarashlar mavjud. Bu ushbu hodisaning ko'p qirraliligi, real faoliyatda imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmasligi, amaldagi qonunchilikdan bexabariligi bilan bog'liq. Bir-birini to'ldiruvchi va riskning umumiy mazmunini qamrab oladigan ikkita asosiy tushunchani ko'rib chiqaylik.

Birinchi ta'rif shundan iboratki, risk korxonaning o'z resurslarining bir qismini yo'qotish ehtimoli (tahdidi), ma'lum ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat natijasida daromadlarni yo'qotish yoki qo'shimcha xarajatlarning paydo bo'lishidir. Shuning uchun risk deganda, noxush hodisa yuz berishi, muvaffaqiyatsizlik ehtimoli, xavf tug'dirishi mumkinligi tushuniladi.

Riskning ikkinchi ta'rif "tavakkalchilik holati" tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir. Vaziyat, umuman olganda, bu ma'lum bir faoliyat turi uchun ma'lum bir muhit yaratadigan kombinatsiya, har xil sharoitlarning jamlanmasidir. Tashqi muhit ushbu harakatni amalga oshirishga yordam berishi yoki to'sqinlik qilishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

- risk - bu noaniq natijaga ega bo'lgan, salbiy oqibatlarining majburiy mavjudligi bilan bog'liq vaziyatning o'ziga xos xususiyati;
- tor ma'noda risk – xavflarni miqdoriy baholash, bir hodisa sodir bo'lganda ikkinchisi sodir bo'lish chastotasi sifatida belgilanadi;
- risk - bu noaniq hodisa yoki holat bo'lib, u sodir bo'lsa kompaniya obro'siga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan, pul ko'rinishida daromad yoki yo'qotishlarga olib keladi;
- risk - bu yomon sharoitda biror narsaning nomaqbul yo'qolishi ehtimoli;
- risk – xavfning nazoratdan chiqib ketish ehtimoli va uning namoyon bo'lish darajasi bilan ifodalangan oqibatlarining jiddiyligi.

Risk tushunchasini yana kengroq yoritish uchun olimlarning ilmiy qarashlarini quyidagicha yoritib o'tamiz[2,3,4,5,6].

1-jadval

Risk tushunchasiga bo'lgan ilmiy yondoshuvlar

№	Yondoshuv guruhlari	Mualliflar	Yondoshuvlarning mazmuni
1.	Faqat yo'qotishlar	Graboviy P.G.	Korxonalar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf ostida o'zlarining bir qism resurslarini yo'qotishi, ko'zlangan daromadga ega bo'la olmaslik yoki ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatni amalga oshirish natijasida qo'shimcha harajatlarning yuzaga kelishi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



			tushuniladi.
		Vebster T.	Mumkin bo'lgan yo'qotishlar ehtimolligi.
		Van Xorn D.K.	Paydo bo'lishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar ehtimolligi.
		Adhamov M.	Iqtisod nuqtai-nazaridan, foydadan mahrum bo'lish va boshqa sabablarga ko'ra zarar ko'rish singari yomon oqibatlar ro'y berish ehtimoli bilan ifodalanadi.
		Alenichev V.V, Alenicheva T.D.	Kreditorga tegishli bo'lgan asosiy qarz va foizlarni to'lay olmaslik natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlar xavfi.
		Petrov S.N.	Bu korxona resurslarining bir qismini yo'qotish yoki daromad ola olmaslik, qo'shimcha harajatlar qilish xavfidir.
2.	Faqat zararlar	Abdullaev Yo., Boboqulov T.	Foiz xavf-xatari deganda, foiz stavkalarining darajasi va harakatining o'zgarishi natijasida zarar ko'rish xavfi.
		Malikov T.	Rejalashtirilgan foydani ololmaslik yoki zararining yuzaga kelish ehtimoli.
		Belyavskiy I.K.	Zarar ko'rish yoki belgilangan maqsadga erisha olmaslik xavfi.
		Balabanov I.T.	U yoki bu turdagi xo'jalik operatsiyasi xususiyatidan kelib chiqadigan pul ko'rinishidagi zarar xavfi.

Ishbilarmon o'n ming yoki millionlab hali ishlab chiqarmagan mahsulotining bozori yurishishi kafolatiga ega bo'lmasdan, ular ustida tadqiqotlar olib borishga, ishlab chiqarishni kengaytirish va yangilarini qurishga risk qilib mablag' sarflaydi. Uning har bir harakatida *omadsizlik xavfi* yashiringan.

Risk bilan bog'liq bo'lgan loyihani qabul qilish potentsial yo'qotishlarni va daromadlarni aniqlash hamda taqqoslashni o'z ichiga oladi. Agar xavf-xatar hisob-kitoblar bilan ta'minlanmasa, unda u asosan muvaffaqiyatsiz tugaydi va ma'lum yo'qotishlarga olib keladi[7,8].





Tadbirkorlik riski tadbirkorlik faoliyatidan ajralmasdir. Tadbirkorlik faoliyatidagi riskda - ishlab chiqarish jarayoniga qo'yilgan resurslarni yo'qotish, rejalashtirilgan daromadning yetishmasligi yoki qo'shimcha xarajatlarning paydo bo'lishi, ta'minotchilarni yo'qotish, noto'g'ri marketing strategiyasini tanlash, asosiy lavozimga qobiliyatsiz odamni yollash va boshqa shu kabi xavflar yuzaga kelishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasidan kelib chiqib risk darajasini ortishining bir nechta *sabablarini* sanab o'tishimiz mumkin: o'z-o'zidan tabiiy jarayonlar va hodisalarning, tabiiy ofatlarning bo'lishi, tasodifiylik, qarama-qarshi tendentsiyalarning mavjudligi, qarama-qarshi manfaatlarning to'qnashuvi, ilmiy-texnika taraqqiyotining ehtimollik xususiyati, noaniqlikning mavjudligi, qaror qabul qilinadigan obyekt, jarayon, hodisa haqidagi ma'lumotlarning to'liq va yetarli emasligi, noaniqlik va tavakkalchilikning manbalarini bilish jarayonining murakkabligi, import qiluvchi mamlakatdagi noqulay siyosiy omillarning ta'siri, import qiluvchi mamlakatda makroiqtisodiy muhitning beqarorligi, milliy iqtisodiyotning chet el kreditorlariga foizlar va asosiy qarzlarni to'lash uchun yetarli miqdorda xorijiy valyutani to'plash qobiliyati, hamkorning ishonchlilik darajasi va uning turli sabablarga ko'ra o'z majburiyatlarini bajara olmasligi.

Yuqoridagi risklarning aksariyati obyektiv (jahon iqtisodiyoti, uning bir qator mintaqalari, alohida mamlakatlar va tovar bozorlari rivojlanishidagi noqulay tendentsiyalar, tabiiy-iqlim sharoitlari) va subyektiv (hukumat va tadbirkorlar siyosatidagi noto'g'ri hisob-kitoblar, raqobatchilar, kontragentlar harakatlarining insofsizligi) tavsifga ega.

Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy faoliyatdagi noaniqlik va tavakkalchilik elementlari - iqtisodiy rivojlanishning ekstensiv usullaridan intensiv usullariga o'tish sharoitida yangi vositalarni tanlash zaruriyatini, rejalashtirish, narx-navo, logistika va moliyaviy-kredit munosabatlaridagi nomutanosiblikni ham keltirib chiqaradi.

Xulosa. Riskning sifat va miqdoriy tahlili ichki va tashqi omillar ta'sirini ko'rib chiqilgan shartlar va xavflarning sabablarini baholash asosida amalga oshiriladi.

Biznesda risk darajasini kamaytirish uchun qo'yidagilarni amalga oshirish muvofiq deb o'ylaymiz:

- yangi ishlab chiqariladigan mahsulot yoki ko'rsatiladigan xizmatlar bozorini to'la o'rganish, turli xavflarni har tomonlama tahlil etish, bular to'g'risida ko'proq ma'lumot olish;
- imkon boricha tadbirkorlik faoliyatida biznes sheriklar, loyiha ishtirokchilari sonini ko'paytirish, bo'lishi mumkin bo'lgan xavf, zarar darajasini kamaytiradi;
- tadbirkor xavf darajasini kamaytirish uchun qo'naltiradigan investitsiya, kapitalini bir-biriga bog'liq bo'lmagan bir nechta obyektga taqsimlashi lozim;
- tadbirkorlik faoliyati subyektlari o'z faoliyatida doimo zahira mablag'larni shakllantirib borishi kerak. Faoliyatda risklarning mumkin bo'lgan oqibatlarida zahira mablag'lari kerak bo'ladi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dedajanov B.N. "Menejment". Darslik. –Namangan.: 2022, – 580 b.
2. Аленичев, В. В., & Аленичева, Т. Д. (1994). Страхование валютных рисков, банковских и экспортных коммерческих кредитов. М.: Ист-сервис.
3. Балабанов И.Т. Риск-менеджмент / И.Т. Балабанов. – М.: Финансы и статистика, 1996. – 192 с.
4. Ван Хорн, Д. К., & Вахович, Д. М. (2001). Основы финансового менеджмента. М. и др.: Издат. дом " Вильямс".
5. Грабовий П.Г. и др. Риски в современном бизнесе - М.: Аланс, 1999. 75б. .
6. Маликов Т. «Молиявий қарор қабул қилиш асослари» - Т.: «Шарқ», 1996. 24 б.
7. Nabijanovich, D. B. (2023, May). TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA BOSHQARUV STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. In " USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE (Vol. 8, No. 1).
8. Эргашева, Ф. И. (2023). ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АХБОРОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).